

**FUQAROVIIY-HUQUQIY SHARTNOMA**  
**K-16-sonli**

Toshkent shahri

2025-yil “ 1 ” dekabr

“Buyurtmachi” deb nomlanuvchi, buyruq asosida faoliyat yurituvchi “Yangi O‘zbekiston” universiteti o‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor v.b. **Axmedov Boxodir Bobomuratovich** bir tomondan, “Ijrochi” deb nomlanuvchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi **Mamanazarova Nargiza Komildjanovna** (ID seriyasi va raqami: AD 0955889) ikkinchi tomondan, birgalikda “Tomonlar” quyidagi mazmunda mazkur fuqaroviy-huquqiy shartnomani tuzdilar:

**1. SHARTNOMANING PREDMETI**

1.1. Mazkur shartnomaga asosan Ijrochi Buyurtmachining topshirig‘iga ko‘ra ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish (keyingi o‘rinlarda – Ish), natijasini Buyurtmachiga topshirish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun mehnat haqi to‘lash majburiyatini oladi.

1.1.1. Ish turi:

Koreys tili bo‘yicha oliy ma‘lumotga ega pedagoglarni qayta tayyorlash kurslarining tinglovchilariga dars mashg‘ulotlarini olib borish;

Koreys tilidan qayta tayyorlash kursi tinglovchilarining bitiruv malakaviy (diplom) ishi himoyasida attestatsiya komissiyasi a‘zosi sifatida qatnashish.

1.2. Ijrochi tomonidan bajariladigan ishlar, Buyurtmachi tomonidan berilgan vazifalarga mos kelishi lozim.

**2. TOPSHIRISH-QABUL QILISH**

2.1. Bajariladigan ish natijasi mazkur shartnoma asosida 2 nusxada tuzilgan topshirish-qabul qilish to‘g‘risidagi Dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

**3. ISHNI BAJARISH MUDDATI**

3.1. Mazkur shartnoma bo‘yicha xizmatlarni bajarish muddati 2025-yil 1-dekabrden 2026-yil 15-yanvargacha.

**4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI**

4.1. Ijrochi:

mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko‘rsatilgan muddatlarda va sifatli bajarishi;

shartnomada ko‘rsatilgan xizmatlarni uchinchi shaxslarga o‘tkazmaslik;

buyurtmachi hududida texnika (axborot) xavfsizligi qoidalariga rioya qilishi;

buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlarni oshkor etmaslik;

o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish imkoniyati bo‘lmaganda buyurtmachini tezda xabardor qilish va to‘lov bo‘yicha da‘voni bildirmaslik lozim.

4.2. Buyurtmachi:

mazkur shartnomada ko‘rsatilgan xizmatlar bajarilgandan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq majburiy to‘lov va soliqlarni ushlab qolib Ijrochiga mehnat haqini o‘z vaqtida to‘lash;

ijrochiga ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan sharoit, ma‘lumot va hujjatlar bilan ta‘minlash.

## **5. HISOB-KITOB TARTIBI VA SHARTLARI**

5.1. Shartnoma bo'yicha xizmat haqi qayta tayyorlov kursi doirasida o'tilgan har bir soat dars uchun 250 000 (ikki yuz ellik ming) so'mni tashkil etadi.

5.2. Shartnomada belgilangan mehnat haqi Ijrochining milliy valyutadagi hisob varag'iga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan majburiy to'lov va soliqlar Buyurtmachi tomonidan ushlab qolinganda pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

5.3. Xizmat haqi to'lovining to'liq miqdori Ijrochichi tomonidan xizmatlar bajarilgandan so'ng 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

## **6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Taraflar o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra javobgar bo'ladilar.

6.2. Ijrochi bajarilgan xizmatlari uchun javobgardir.

6.3. Shartnomaning amal qilish muddati mobaynida Ijrochi aybi bilan Buyurtmachining mulkiga zarar yetkazilgan bo'lsa zarar Ijrochi tomonidan to'liq qoplab beriladi.

Bunda zarar miqdori taraflar kelishuviga muvofiq, tegishli kelishuvga erishilmagan taqdirda amaldagi qonunchilik hujjatlari talablari asosida aniqlanadi.

## **7. BOSHQA SHARTLAR**

7.1. Tomonlar, o'z xohishlariga ko'ra va tushuntirishsiz, ushbu Shartnomani bir tomonlama bekor qilinishi kutilayotgan sanadan 15 (o'n besh) kun oldin yozma ravishda bekor qilishlari mumkin.

7.2. Mazkur shartnoma bo'yicha kelishmovchiliklar tomonlarning kelishuvi bilan, kelishuvga erishilmagan taqdirda – O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda hal qilinadi.

7.3. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan hollarda, Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga rioya qilinadi.

## **8. FORS-MAJOR HOLATLAR**

8.1. Favqulodda vaziyatlar yuz berganda tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi. Quyidagi: tabiiy hodisalar, jangovar harakatlar, inqiloblar, ish tashlashlar, qonunchilikdagi o'zgarishlar, davlat organlari tomonidan taqiqlovchi choralar, mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi me'yoriy hujjatlar qabul qilinishi holatlari favqulodda holat deb hisoblanadi.

8.2. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi sababli o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan tomon boshqa tomonni ular yuzaga kelgan paytdan e'tiboran 10 (o'n) kundan kechiktirilmasdan fors-major holatlari yuzaga kelishi va kutilayotgan amal qilish muddati to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishi shart.

8.3. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi to'g'risida o'z vaqtida xabar berilmagan taqdirda, fors-major holatiga duch kelgan Tomon boshqa tomonga tegishli dalillar bilan tasdiqlangan zararni qoplashi shart.

## **9. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR**

9.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish jarayonida tomonlar, ularning affillangan shaxslari, direktorlar, mansabdor shaxslar, xodimlar yoki boshqa vakillari, subpudrat tashkilotlari, agentlari hamda tomonlar nazorati ostidagi boshqa shaxslar hech qanday pul mablag'larini yoki boshqa qimmatbaho boyliklarni taklif qilmaydi, bunga ko'maklashmaydi va/yoki ruxsat bermaydi. Ushbu harakatlar orqali har qanday shaxsning qarorlariga yoki harakatlariga ta'sir o'tkazish, noqonuniy ustunlik yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish ko'zda tutilmaydi.

Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish davomida tomonlar va ularning vakillari, subpudrat tashkilotlari, agentlari hamda boshqa bog'liq shaxslar amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq pora berish va qabul qilish, tijorat poraxo'rligi kabi noqonuniy harakatlarni amalga oshirmaydi hamda O'zbekiston Respublikasining jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi qonunchiligi talablarini buzmaydi.

9.2. Agar biror tomon ushbu bo'lim qoidalarining buzilganligi yoki buzilishi mumkinligi haqida shubha qilsa, u ushbu holat aniqlik kiritilgunga qadar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishni to'xtatish huquqiga ega. Bunday holatda, boshqa tomon 14 (o'n to'rt) kalendar kuni ichida yozma bildirishnoma olgan kundan boshlab buzilish holati yuz bermaganligi yoki yuz bermasligi haqida tushuntirish berishi shart.

9.3. Agar tomonlardan biri ushbu bo'limda belgilangan taqiqlanuvchi harakatlardan tiyilish majburiyatlarini buzsa va/yoki boshqa tomon belgilangan muddat ichida buzilish yuz bermaganligi yoki yuz bermasligi to'g'risida tushuntirish taqdim etmasa, ikkinchi tomon shartnomani to'liq yoki qisman bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega. Bunday hollarda, yozma ravishda shartnomani bekor qilish to'g'risida bildirishnoma yuboriladi.

## 10. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

10.1. Mazkur Shartnoma Tomonlarning har biri uchun bittadan nusxada o'zbek tilida tuziladi.

10.2. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddati va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

10.3. Mazkur Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar tomonlar o'rtasida imzolangan bo'lsa, haqiqiy va mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

## 11. TOMONLARNING HUQUQIY (POCHTA) MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

### BUYURTMACHI

“Yangi O'zbekiston” universiteti

Manzil: Toshkent shahar, M.Ulug'bek tumani., Movarounnah ko'chasi, 1-uy.

Tel.: +998 71 202 41 11

HR: 20212000905432798001

Bank nomi: O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy Banki, Mirzo Ulug'bek filiali

Bank kodi: 00450

STIR: 308 709 154



### IJROCHI

Mamanazarova Nargiza Komildjanovna

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Urazboyev ko'chasi, 2-uy

Tel.: (97) 705-60-15

JSHIR: 42502806760017

Karta raqami: 5614 6816 0160 3610

Hisob raqami: 23120000000011196202

Bank nomi: AT Uzsanoatqurilishbank

Bank kodi: 00440

Bank STIR: 200 833 707

N. Mamanazarova  
(imzo)